O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HARBIY XAVFSIZLIK VA MUDOFAA UNIVERSITETINING AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA HARBIY ALOQA INSTITUTI

“AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI HARBIY SOHAGA TRANSFORMATSIYA QILISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR”

II-RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYANING

MAQOLALAR TO‘PLAMI

“ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ТРАНСФОРМАЦИИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВОЕННУЮ СФЕРУ”

СБОРНИК СТАТЕЙ

II-РЕСПУБЛИКАНСКОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

“PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE TRANSFORMATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES INTO THE MILITARY SPHERE”

COLLECTION OF ARTICLES

OF THE II-REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE





Toshkent - 2026 yil 12 fevral

Konferensiya tashkiliy qo‘mitasining

T A R K I B I:

podpolkovnik Raximov B.N.	**Raisi**, AKTvaHAI boshlig‘i, t.f.d., professor
kapitan To‘rayev B.Z.	**Rais o‘rinbosari**, AKTvaHAI boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari (o‘quv va ilmiy ishlar bo‘yicha), t.f.d., professor
podpolkovnik Muradov F.A.	AKTvaHAI boshlig‘i o‘rinbosari – shtab boshlig‘i, PhD
podpolkovnik Shermatov F.T.	O‘R HXvaMU AKTvaHAI boshlig‘ining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, p.f.d., dotsent
kapitan Yusupov B.K.	**Rais o‘rinbosari,** AKTvaHAI kafedra boshlig‘i, PhD, professor
podpolkovnik Nishanov I.I.	**Rais o‘rinbosari,** AKTvaHAI kafedra boshlig‘i, PhD, dotsent
podpolkovnik Kuzibekov N.Sh.	AKTvaHAI o‘quv bo‘limi boshlig‘i, PhD
katta leytenant Xamdamov D.B.	AKTvaHAI o‘quv bo‘limi katta ofitseri (uslubiyotchi). PhD, dotsent
podpolkovnik Baxramov F.B.	AKTvaHAI oliy ta’lim muassasasidan keyingi ta’lim bo‘limi boshlig‘i, PhD
polkovnik Mirjalolov O.A.	AKTvaHAI kafedra boshlig‘i, t.f.f.d. (PhD), dotsent
polkovnik Davlatov O‘.R.	AKTvaHAI sikl boshlig‘i, PhD
polkovnik Nurmatov T.Sh.	AKTvaHAI kafedra boshlig‘i
podpolkovnik Kambarov Sh.A.	AKTvaHAI quruqlikdagi qo‘shinlar havo hujumidan mudofaa kafedrasi boshlig‘i
kapitan Boboyev N.T.	AKTvaHAI ilmiy - tadqiqot laboratoriyasi boshlig‘i, PhD
podpolkovnik Nurmetov B.S.	AKTvaHAI kafedra boshlig‘i, t.f.f.d. (PhD), dotsent
podpolkovnik Tursunov Q.M.	AKTvaHAI kafedra boshlig‘i, t.f.f.d. (PhD), dotsent
podpolkovnik Tursunov T.M.	AKTvaHAI kafedra boshlig‘i
kapitan Turapov Sh.N.	AKTvaHAI kafedra boshlig‘i, t.f.d. (DSc), professor
podpolkovnik Norbekov Ya.	AKTvaHAI HHK BI bo‘limi boshlig‘i, t.f.f.d. (PhD)
polkovnik Bazarov A.B.	AKTvaHAI sikl boshlig‘i, PhD, dotsent
mayor Tajiyev J.A.	AKTvaHAI sikl boshlig‘i, DSc, dotsent

mayor Dexqonov O.R.	AKTvaHAI sikl boshlig‘i, PhD, dotsent
kapitan Xayitov D.D.	AKTvaHAI kafedra katta o‘qituvchisi PhD, dotsent
mayor Muhamadov B.O.	AKTvaHAI kafedra katta o‘qituvchisi PhD, dotsent
kapitan Komilov A.A.	AKTvaHAI sikl boshlig‘i, PhD
kapitan Isakov M.M.	AKTvaHAI sikl boshlig‘i
k-ta l-nt Qodomboyev R.O‘.	**Tahrirchi**, AKTvaHAI kafedra katta o‘qituvchisi
k-ta l-nt Fayzullayev A.X.	**Tahrirchi**, AKTvaHAI kafedra katta o‘qituvchisi
QK xizmatchisi Abidov A.A.	**Tahrirchi**, AKTvaHAI kafedra professori, dotsent
QK xizmatchisi Sapayev Sh.R.	**Muharrir**, AKTvaHAI kafedra professori, dotsent
QK xizmatchisi Umaraliyev B.N.	**Kotib,** AKTvaHAI kafedra dotsenti
III darajali serjant Axmedov Z.M.	**Muharrir yordamchisi**, AKTvaHAI kafedra katta texnigi
katta serjant Xaitov Sh.Ch	AKTvaHAI kafedra katta texnigi

Muassis:

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va Mudofaa universiteti Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Manzil:
100084, O‘zbekiston, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Quyoshli qo‘rg‘oni 176 h/sh.
Telefon: *(71)502-71-08, (71)502-71-12;*
e-mail: *harbiyinstitut176@mail.ru*

Bosishga ruxsat etildi:
Qog‘oz bichimi 60x84 1/8
Bosma tabog‘i 15,5. Adadi 2 nusxa
Buyurtma raqami №195 “Harbiy instituti bosmaxonasi”da chop etildi
O‘zbekiston, Toshkent viloyati,
Zangiota tumani
Quyoshli qo‘rg‘oni 176 h/sh.

© «O‘R HX va MU AKT va HAI» 2026

136.	**t.f.n., dotsent SAVRIDINOV N.** Mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirishda innovatsion korporativ hamkorlikni rivojlantirishning o‘rni va ahamiyati…..	739
137.	**SHERALIYEV D.A. dotsent, NAJIMIDINOV Z.Sh.** Mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida kursantlarning texnik tafakkurini rivojlantirish omillari….	743
138.	**mustaqil izlanuvchi TEMIROV S.Sh.** Harbiy sohada ekspert tizimiga asoslanib ingliz tilini o‘qitishning samaradorligi ……..	747
139.	**PhD., professor YUSUPOV B.K., ERMAKOVA M.A.** Harbiy sohada metaforik terminlarning semantik tahlili: amaliy diskurs va terminografik yondashuv……	752
140.	**UMAROV I.O., TURDIQULOV A.M., JUMABOYEV D.G‘.** Harbiy ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o‘qitishda innovatsion metodlar samaradorligini oshirish……	755
141.	**NABIJONOVA M.B.** Virtual voqelik zamonaviy oliy o‘quv yurtining ta’lim jarayonida……..	758
142.	**SHERMATOV F.T., AZIMOVA Z.B.** Talabalarining o‘quv jarayoniga psixologik ta’sir ko‘rsatishning psixokorreksion omillari……	770
143.	**QORABOYEV A.I.** Harbiy xizmatchilarni xizmatga moslanuvchanliklarini harbiy xizmatdagi ahamiyati ……	775
144.	**SAYDJANOV F.M.** Axborot-psixologik hurujlar ta’sirida harbiy xizmatchilarda stressni vujudga keltiruvchi xolatlarning empirik o‘rganilishi	783
145.	**DSc., dotsent SHERMATOV F.T., JUMANAZAROV B.B.** Bo‘lajak ofiserlarning harbiy boshqaruv kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari……	789
146.	**YULDASHEV Dj.R.** Mudofaa tizimiga malakali harbiy pedagogik kadrlarni tayyorlashning muhim va dolzarb masalalari……..	795
147.	**MEYLIYEV A.X.** Havo hujumidan mudofaa mutaxassisligi kadrlarini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarning o‘rni	800
148.	**MURODOVA Y.T.** Sun’iy intellektning til o‘rgatishda va zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati……	807
149.	**dotsent, NAJIMIDINOV Z.Sh., SHERALIYEV D.A.** Multisim 14.0 dasturini ta’lim jarayonida laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishda qo‘llash……..	812
150.	**СУЛТОНОВ М.М.** Применение современных компьютерных технологий для разработки модульных мультифункциональных тренажеров радиоэлектронной техники ……	817
151.	**dotsent A.B. SOLIYEV.** Harbiy ta’limning raqamli transformatsiyasi: ta’lim jarayoni va axborot xavfsizligini ta’minlashda innovatsion yondashuvlar……	821

1. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. O'zbekiston faylasuflar jamiyati nashriyoti. Toshkent 2010 y.
2. Rasulov A.A. «Psixodiagnostika» o'quv metodik qo'llanmasi.
3. Salayeva M.S. Axmedova M. «Psixologik diagnostika va amaliyot»
4. Nishanova Z., Qurbonova Z., Abdiev S., To'laganova Sh. "Psixodiagnostika". – T.: 2008.

AXBOROT-PSIXOLOGIK HURUJLAR TA'SIRIDA HARBIY XIZMATCHILARDA STRESSNI VUJUDGA KELTIRUVCHI XOLATLARNING EMPIRIK O'RGANILISHI

Saydjanov Farxod Madraximovich
O'zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy harbiy ta'lim muassasalari va Qurolli Kuchlarining harbiy tuzilmalarining barcha toifadagi harbiy xizmatchilariga, hozirgi qurolli to'qnashuvlar, gibrid urushlar va axborot-psixologik tahdidlar vaqtida harbiy xizmatchini psixologik xavfsizlik-immunitetini shakllantirish, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish, turli feyk, propoganda va boshqa ta'sir vositalari natijasida xosil bo'lgan stressga bardoshlilik darajasi va undan himoyalanish muhim vazifalardan hisoblanadi. Maqola axborot-psixologik xurujlarga qarshi kurash va himoyalash mexanizmlarini takomillashtirishda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning nazariy tahlili va tadqiqot natijalari namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarining uslubiy vositalarining tahlili ko 'rsatilgan.

Kalit so'zlar: *zamonaviy psixologiya, ilmiy muammolar, Qurolli Kuchlarining harbiy tuzilmalari, harbiy xizmatchilar, gibrid urushlar, axborot-psixologik tahdidlar, feyk, propoganda, stressga bardoshlilik va tanqidiy tafakkur.*

Annotation. In this article, for all categories of military personnel of higher military educational institutions and military formations of the Armed Forces, during current armed conflicts, hybrid wars and information-psychological threats, the formation of psychological security-immunity of a serviceman, the development of critical thinking, the level of stress resistance and protection from it, formed as a result of various fakes, propaganda and other means of influence, are considered important tasks. The article presents a theoretical analysis of the development of critical thinking in improving the mechanisms for combating and protecting against information-psychological attacks and an analysis of the methodological means of psychological characteristics of the manifestation of research results.

Keywords: *modern psychology, scientific problems, military formations of the Armed Forces, military personnel, hybrid wars, information-psychological threats, fake, propaganda, stress resistance and critical thinking.*

Bugungi kunda Globallashuv davrida internet, komputer va mobil smartfonlarsiz tasavvur qilish qiyin. Raqamli texnologiyalar, elektron xizmatlar har bir xonadonga kirib ulgurdi. Insonlar kundan-kun axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga tobora

qaram bo'lib borayotganligi, ularni himoyalash va foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta'minlash milliy manfaatlar uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Ya'ni, jamiyatni axborotlashtirishning muhim Sharti, bu kiberxavfsizlikni ta'minlash ekanligi barcha davlatlar tomonidan birdek tan olinib, bu borada kiberxavfsizlik tizimini kunning dolzarb masalasi ekanligi qayd etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigida: muhandislik-texnika, kiberxavfsizlik va axborot xurujlariga qarshi kurashish sohalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash eng muhim masala ekani ta'kidlandi.

Harbiy xizmatchilarni tadqiq jarayonida kibermakondagi axborot-psixologik ta'sirlari natijasida sodir bo'ladigan stressga bardoshlilikni ta'minlashning psixologik omillarini mavjud metodikalar yordamida o'rgandik. Tadqiqot metodlari asosan ikki turga bo'linadi: miqdoriy (kvantitativ) va sifatiy (kvalitativ). Miqdoriy metodlar sonli ma'lumotlarga asoslanib, statistik tahlilni qo'llaydi, sifatiy metodlar esa chuqur tavsif va talqinlarga e'tibor berdik. Tadqiqotda quyida asosiy metodlarning tavsifi keltirilgan, ular psixologiyada keng qo'llaniladi.

Ushbu qo'llanilgan psixologik metodikalarning Yu.V. Sherbatixning "Stressning darajasini baholash" va Pol J. Meerning, Nikita Nepryaxin va Taras Pashchenko tomonidan modifikatsiya qilingan "Stressga bardoshlilik g'ildiragi", Ch. Osgudaning "Semantik differensial metodikasi", K. Gottshaldtning "Muxitga tobelik" so'rovnomasi, O. P. Yeliseevning "Suggestivlikni baholash" metodikasi, B. Botirovning "Ma'naviy kadriyatlarni baholash" va V.Yu. Ribnikovning "Bashorat" psixologik metodikalari o'z hususiyatlaridan kelib chiqib unumli foydalanildi.

Biz harbiy xizmatchilarning turli xil axborot-xurujlariga va ular oqibatida kuzatiladigan stress holati hamda oqibatlarini o'rganishga e'tibor qaratiladi. Tadqiqotning dastlabki sinovida harbiy xizmatchilarning 10 xil axborot-xurujlari ta'siriga nisbatan o'z tajribalari, taassurotlari va tasavvurlariga ko'ra munosabatlari baholash amalga oshirildi. Buning uchun quyidagi mualliflik baholash shkalasi "Axborot-psixologik xuruj turlari ta'sirchanlik darajasi bo'yicha baholash shkalasi" (S.M.To'ychieva, F.Saidjonov)dan foydalanildi. Baholash shkalasida quyidagi axborot-psixologik xurujlar manba sifatida olindi. Shkalani tatbiqidan olingan empirik ko'rsatkichlarni baholashdan ollin axborot-psixologik xurujning tavsiflovchi 10 ta shkalaning qisqacha tavsifini keltirib o'tiladi.

Feyk yangiliklar - noto'g'ri ma'lumot orqali odamlarni chalg'itish, panika keltirib chiqarish.

Manipulyativ kontentlar - ma'lum bir fikrni singdirish yoki qarama-qarshilikni kuchaytirish uchun yaratilgan kontent.

Dushman videolari - qo'rqitish, tahdid qilish yoki dushmanni qudratli qilib ko'rsatish maqsadida tarqatiladi.

Tahdidli axborotlar - jamiyatda xavfsizlik hissini yo'qotishga xizmat qiladi.

Haqoratli materiallar - shaxsiy va milliy qadr-qimmatga tajovuz orqali jamiyatda keskinlik uyg'otish.

Qadriyatlarga tajovuz - milliy, diniy yoki madaniy qadriyatlarni masxara qilish orqali xalqni ruhiy bosimga olish.

Dezinformatsiya - haqiqatni buzib ko'rsatish, odamlarni noto'g'ri qarorlar qabul qilishga majburlash.

Yolg'on statistika - soxta raqamlar orqali vaziyatni ataylab og'irlashtirib ko'rsatish.

Qo'shinda ishonchsizlik uyg'otuvchi kontentlar – harbiy xizmatchilar orasida ishonchni yo'qotish orqali armiyani zaiflashtirish.

Ruhiyatni pasaytirish - umumiy ruhiy tushkunlik keltirib chiqarish, kurashish irodasini so'ndirish.

"Axborot-psixologik xuruj turlari ta'sirchanlik darajasi bo'yicha baholash shkalasi" harbiy xizmatchilarning bir necha xususiyatlari, ya'ni harbiy xizmatchilarning yosh, harbiy unvonlari, mehnat topshiriqlarini bajarishdagi ko'rsatkilchari bo'yicha rag'batlantirilish ko'rsatkichlari, harbiy mutaxassislik, mutaxassislik toifasi va harbiy xizmatdagi faoliyat yillari bo'yicha natijalar tahlil qilinadi. Quyida empirik ko'rsatkichlar batafsil yoritiladi.

Manipulyativ tarzda tayyorlangan kontentlar bo'yicha ham mutaxassislik toifalari o'rtasida statistik farq aniqlandi ($H= 12.15$, $p<0.05$). O'rtacha ranglar: toifasi yo'q – 170.1, 1-toifa – 171.3, 2-toifa – 170.3, 3-toifa – 169.0, master – 168.2. Bunday axborot turlari shaxsda axborotni tanlab qabul qilish qobiliyatini susaytiradi, mantiqiy fikrlashni zaiflashtiradi. Ayniqsa 1-toifali (171.3) va 2-toifali xizmatchilarda rag'batning (e'tirof, mukofot, ma'naviy ko'mak) hissi yo'qori bo'lgani sababli ular bu xurujlarga nisbatan ruhan barqaror bo'lgan. Rag'bat orqali shakllangan barqarorlik shaxsda axborotni tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini saqlab qolishga yordam beradi.

Dushman tomonidan tarqatilgan vizual kontentlarga nisbatan munosabatda ham toifalar bo'yicha farq mavjud ($H= 14.03$, $p<0.05$). O'rtacha ranglar: toifasi yo'q – 168.9, 1-toifa – 170.1, 2-toifa – 169.0, 3-toifa – 167.7, master – 166.9. Videokontent shaxsda qo'rquv, xafsala pirlik va o'z salohiyatiga shubha uyg'otishi mumkin. Ta'sirni yengishda ayniqsa 1-toifali (170.1) xizmatchilardagi rag'bat bilan ta'minlanganlik ularda demotivatsiyani kamaytirgan. Qo'llab-quvvatlovchi muhit shaxsning ko'rish orqali olinadigan ta'sirlarga bardoshini oshirgan.

Tahdid, shantaj, va qo'rqitish tarzidagi axborotlarga nisbatan ham toifalar o'rtasida ahamiyatli farq kuzatilgan ($H= 15.26$, $p<0.05$). O'rtacha ranglar: toifasi yo'q

– 167.5, 1-toifa – 168.7, 2-toifa – 167.6, 3-toifa – 166.3, master – 165.5. Tahdid shaxsda xavotir, ruhiy beqarorlik uyg'otadi. Lekin 1-toifali xizmatchilarda (168.7) rag'bat — xususan, moddiy va ma'naviy e'tirof orqali — ushbu ta'sirni yengishda samarali rol o'ynagan. Rag'batning mavjudligi shaxsda "faol himoya munosabati"ni shakllantirgan.

Yolg'on va burmalangan raqamli ma'lumotlar ta'sirida ham toifalar bo'yicha farqlar mavjud (H= 12.00, p<0.05). O'rtacha ranglar: toifasi yo'q – 163.8, 1-toifa – 165.0, 2-toifa – 163.9, 3-toifa – 162.6, master – 161.8. Bunday ma'lumotlar kognitiv notinchlik va ishonchsizlik keltirib chiqaradi. Ta'sirni yengishda 1-toifali mutaxassislar (165.0)dagi ma'lum darajadagi tanqidiy tahlil qobiliyati va rag'bat shakllantirilganligini ko'rsatadi. Rag'batning bu yerda bilimni baholashda ishonch paydo qilishga xizmat qilgani aniq.

Ishonchsizlikni shakllantirishga qaratilgan axborotlar bo'yicha ham statistik farqlar kuzatildi (H= 13.40, p<0.05). O'rtacha ranglar: toifasi yo'q – 163.0, 1-toifa – 164.2, 2-toifa – 163.1, 3-toifa – 161.8, master – 161.0. Bunday kontentlar guruhlararo ishonchni buzishi, psixologik birdamlikni zaiflashtirishi mumkin. Ayniqsa 1-toifali xizmatchilardagi rag'bat — jamoaviy muhitdagi e'tirof — ularda ijobiy psixologik pozitsiyani saqlab qolishga yordam bergan. Bu holatda rag'bat shaxsda ijtimoiy barqarorlik mexanizmi vazifasini bajargan.

Ruhiyatni pasaytirishga qaratilgan kontentlardan iborat xurujda ham harbiy xizmatchilarning mutaxassislik toifalarida statistik farq kuzatildi (H= 14.75, p<0.05). O'rtacha ranglar: toifasi yo'q – 161.9, 1-toifa – 163.1, 2-toifa – 162.0, 3-toifa – 160.7, master – 159.9. Bu turdagi axborot shaxsda demotivatsiya, ruhiy charchoq va ishonchsizlik uyg'otadi. Ta'sirni yengishda rag'bat turlari, ayniqsa moddiy mukofot va ma'naviy e'tirof, katta rol o'ynagan. Rag'bat shaxsda "ruhiy barqarorlik"ni shakllantirgan, bu esa demoralizator ta'sirlarni kamaytirgan. «Qayta tiklanish nazariyasi» (Richardson, 2002) asosida inson qanday holatda bo'lmasin, agar ijobiy tashqi qo'llab-quvvatlash vositalariga ega bo'lsa, ruhiy barqarorlikni tiklay oladi.

Haqoratli kontentlarga nisbatan harbiy xizmatchilarning mutaxassislik toifalari o'rtasida statistik farq aniqlanmadi, ammo umumiy tendensiya mavjud (H= 11.36, p<0.05). O'rtacha ranglar: toifasi yo'q – 166.1, 1-toifa – 167.3, 2-toifa – 166.2, 3-toifa – 164.9, master – 164.1. Haqoratli axborot shaxsda ruhiy charchoq va o'z qadr-qimmatiga nisbatan shubha uyg'otishi mumkin. Bu turda rag'bat va ijobiy ma'naviy qo'llab-quvvatlashning muhimligi oshadi, chunki ular shaxsning ichki o'zini himoya qilish va o'z-o'zini qadrlash mexanizmlarini quvvatlaydi. Qolaversa, psixologik barqarorlikni ta'minlashda hamma toifalarda rag'batning rolini oshirish zarur.

Qadriyatlarga tajovuzga qaratilgan kontentlarga nisbatan mutaxassislik toifalari o'rtasida statistik farq aniqlanmadi (H= 10.94, p<0.05), lekin pasaytirish

tendensiyasi mavjud. O'rtacha ranglar: toifasi yo'q – 165.3, 1-toifa – 166.5, 2-toifa – 165.4, 3-toifa – 164.1, master – 163.3. Qadriyatlarga nisbatan tajovuz shaxsda ichki kurash va psixologik ziddiyatlar uyg'otadi, bu ruhiy charchoq va motivatsiyaning pasayishiga olib keladi. Shu bois, ruhiy barqarorlikni ta'minlashda rag'batlantirish mexanizmlari — ayniqsa ma'naviy qo'llab-quvvatlash va umumiy jamoaviy qiymatlarga e'tiborni oshirish — muhim hisoblanadi.

Dezinformatsiya turiga kiruvchi axborot-psixologik xurujlarda ham mutaxassislik toifalari bo'yicha statistik farq mavjud emas ($H= 9.98$, $p<0.05$), lekin ma'lum darajadagi farqlar kuzatildi. O'rtacha ranglar: toifasi yo'q – 164.5, 1-toifa – 165.7, 2-toifa – 164.6, 3-toifa – 163.3, master – 162.5. Dezinformatsiya shaxsda axborotga bo'lgan ishonchni susaytirib, psixologik noaniqlik va xavotir uyg'otishi mumkin.

Jumladan, harbiy xizmatchilarni axborot-psixologik stressga bardoshliyligini quyidagi muammolarda ko'ramiz:

axborot-psixologik xurujlardan himoyalanganlik darajasini baholash yuzasidan tegishli psixologik metodikalar ishlab chiqilmagan;

harbiy xizmatchilarni tafakkurini salbiy axborot-psixologik xurujlarga qarshi immunitetni rivojlantirishning o'ziga xosligi psixologik tavsiflanmagan;

tadqiqot ishtirokchilarini tanqidiy tafakkurini faollashtiruvchi vositalar (usullar, operatsiyalar) samaradorligi ilmiy metodikalarda qiyoslanmagan;

harbiy xizmatchilarni axborot oqimini tahlil qilish va ishonchlilikni baholash qobiliyatlarini oshirishda muhimligi Ch. Osgudaning, K. Gottshaldning, O. P. Yeliseevning va B. Botirovlarning metodikalarida tahlil qilish zarurati mavjud;

harbiy xizmatchilarning axborotga munosabatini empirik o'rganish uchun xorijiy tajriba va metodlarning tanqidiy tafakkur bilan bog'liq jihatlari tahlil qilingan;

tanqidiy fikrlashning rivojlanishi harbiy xizmatchilarning axborot xurujlariga qarshi immunitetini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi;

harbiy xizmatchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish axborot xurujlaridan himoya qilishda samarali vosita hisoblanadi;

shaxsning tanqidiy fikrlashni baholashda muxitga tobelik darajasini, Suggestivlik va semantik-diffirensial holatlarini ma'lum va noma'lum tomonlarini ochishni amalga oshirishga imkon yaratadi;

metodikalarni tadqiqot etish natijalari harbiy xizmatchilarda himoya mexanizmlarini takomillashtirish va amaliy choralar ishlab chiqishda qo'llanishi mumkin;

harbiy xizmatchilarni tayyorlash jarayonida psixologik himoya ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan treninglarni joriy qilish axborot xurujlariga qarshi kurashish masalasida amalga oshirilmagan.

Xulosa qilib aytganda, xizmat yillari ko'p bo'lgan harbiylar axborot-psixologik xurujlarga nisbatan ko'proq barqarorlikka ega bo'lib, bu ularning ichki motivatsiyasini saqlash va ishonchni mustahkamlash uchun muhim. Shu bois harbiylarning yosh va xizmat muddati kichik bo'lgan toifalarida rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish zarur.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, harbiy xizmatchilarning xizmat muddati ortishi bilan ularning axborot-psixologik xurujlarga nisbatan ruhiy barqarorligi va tahlilchan munosabati sezilarli darajada oshib boradi. Tajribali xizmatchilar dezinformatsiya, feyk yangiliklar, yolg'on statistika va ruhiyatni pasaytirishga qaratilgan kontentlarga nisbatan barqarorlik namoyon etgan holda, bu kabi xurujlarning ta'sirini minimallashtirishga qodir ekanliklarini ko'rsatdilar.

Bu holat "Qayta tiklanish nazariyasi" asosida ham o'z tasdig'ini topadi: inson qanday holatda bo'lmasin, agar u tajriba, bilim va ijobiy muhit bilan qo'llab-quvvatlansa, u holda ruhiy barqarorlikni saqlash va tiklash imkoniyati ancha yuqori bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, yosh yoki xizmat staji past bo'lgan harbiylar o'rtasida axborot xurujlarining ta'sirini kamaytirish uchun maqsadli ravishda rag'batlantirish, axborot savodxonligini oshirish va psixologik tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish dolzarb hisoblanadi. Harbiy xizmatchilarning axborot-psixologik xurujlariga ta'siri so'zsiz turli darajadagi stresslarga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Janis, I. L. Victims of groupthink: A psychological study of foreign-policy decisions and fiascoes [Text]. – Boston: Houghton Mifflin, 1972. – 252 p.

2. Аш, С. Ye. Мнение и социальное давление [Текст] / пер. с англ. – М.: Праксис, 1990. – 40 с.

3. Folkman S., Lazarus R., Dunkel-Schetter C., DeLongis A., Gruen R. Dynamics of stressful encounter: Cognitive appraisal, coping, and encounter outcomes // Journal of Personality and Social Psychology. 1986. V.50. P.992-1003.

4. Cannon, W. B. The wisdom of the body [Text]. – New York: W. W. Norton & Company, 1932. – 420 p.

5. Erikson, E. H. Identity: Youth and crisis [Text]. – New York: W. W. Norton & Company, 1968. – 204 p.

6. Cannon, W. B. The wisdom of the body [Text]. – New York: W. W. Norton & Company, 1932. – 420 p.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HARBIY XAVFSIZLIK VA MUDOFAA UNIVERSITETINING AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA HARBIY ALOQA INSTITUTI

“AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI HARBIY SOHAGA TRANSFORMATSIYA QILISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR”

II-RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYANING

MAQOLALAR TO‘PLAMI

“ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ТРАНСФОРМАЦИИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВОЕННУЮ СФЕРУ”

СБОРНИК СТАТЕЙ

II-РЕСПУБЛИКАНСКОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

“PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE TRANSFORMATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES INTO THE MILITARY SPHERE”

COLLECTION OF ARTICLES

OF THE II-REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE





Toshkent - 2026 yil 12 fevral

Konferensiya tashkiliy qo‘mitasining

T A R K I B I:

podpolkovnik Raximov B.N.	**Raisi**, AKTvaHAI boshlig‘i, t.f.d., professor
kapitan To‘rayev B.Z.	**Rais o‘rinbosari**, AKTvaHAI boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari (o‘quv va ilmiy ishlar bo‘yicha), t.f.d., professor
podpolkovnik Muradov F.A.	AKTvaHAI boshlig‘i o‘rinbosari – shtab boshlig‘i, PhD
podpolkovnik Shermatov F.T.	O‘R HXvaMU AKTvaHAI boshlig‘ining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, p.f.d., dotsent
kapitan Yusupov B.K.	**Rais o‘rinbosari,** AKTvaHAI kafedra boshlig‘i, PhD, professor
podpolkovnik Nishanov I.I.	**Rais o‘rinbosari,** AKTvaHAI kafedra boshlig‘i, PhD, dotsent
podpolkovnik Kuzibekov N.Sh.	AKTvaHAI o‘quv bo‘limi boshlig‘i, PhD
katta leytenant Xamdamov D.B.	AKTvaHAI o‘quv bo‘limi katta ofitseri (uslubiyotchi). PhD, dotsent
podpolkovnik Baxramov F.B.	AKTvaHAI oliy ta’lim muassasasidan keyingi ta’lim bo‘limi boshlig‘i, PhD
polkovnik Mirjalolov O.A.	AKTvaHAI kafedra boshlig‘i, t.f.f.d. (PhD), dotsent
polkovnik Davlatov O‘.R.	AKTvaHAI sikl boshlig‘i, PhD
polkovnik Nurmatov T.Sh.	AKTvaHAI kafedra boshlig‘i
podpolkovnik Kambarov Sh.A.	AKTvaHAI quruqlikdagi qo‘shinlar havo hujumidan mudofaa kafedrasi boshlig‘i
kapitan Boboyev N.T.	AKTvaHAI ilmiy - tadqiqot laboratoriyasi boshlig‘i, PhD
podpolkovnik Nurmetov B.S.	AKTvaHAI kafedra boshlig‘i, t.f.f.d. (PhD), dotsent
podpolkovnik Tursunov Q.M.	AKTvaHAI kafedra boshlig‘i, t.f.f.d. (PhD), dotsent
podpolkovnik Tursunov T.M.	AKTvaHAI kafedra boshlig‘i
kapitan Turapov Sh.N.	AKTvaHAI kafedra boshlig‘i, t.f.d. (DSc), professor
podpolkovnik Norbekov Ya.	AKTvaHAI HHK BI bo‘limi boshlig‘i, t.f.f.d. (PhD)
polkovnik Bazarov A.B.	AKTvaHAI sikl boshlig‘i, PhD, dotsent
mayor Tajiyev J.A.	AKTvaHAI sikl boshlig‘i, DSc, dotsent

mayor Dexqonov O.R.	AKTvaHAI sikl boshlig‘i, PhD, dotsent
kapitan Xayitov D.D.	AKTvaHAI kafedra katta o‘qituvchisi PhD, dotsent
mayor Muhamadov B.O.	AKTvaHAI kafedra katta o‘qituvchisi PhD, dotsent
kapitan Komilov A.A.	AKTvaHAI sikl boshlig‘i, PhD
kapitan Isakov M.M.	AKTvaHAI sikl boshlig‘i
k-ta l-nt Qodomboyev R.O‘.	**Tahrirchi**, AKTvaHAI kafedra katta o‘qituvchisi
k-ta l-nt Fayzullayev A.X.	**Tahrirchi**, AKTvaHAI kafedra katta o‘qituvchisi
QK xizmatchisi Abidov A.A.	**Tahrirchi**, AKTvaHAI kafedra professori, dotsent
QK xizmatchisi Sapayev Sh.R.	**Muharrir**, AKTvaHAI kafedra professori, dotsent
QK xizmatchisi Umaraliyev B.N.	**Kotib,** AKTvaHAI kafedra dotsenti
III darajali serjant Axmedov Z.M.	**Muharrir yordamchisi**, AKTvaHAI kafedra katta texnigi
katta serjant Xaitov Sh.Ch	AKTvaHAI kafedra katta texnigi

Muassis:

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va Mudofaa universiteti Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Manzil:
100084, O‘zbekiston, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Quyoshli qo‘rg‘oni 176 h/sh.
Telefon: *(71)502-71-08, (71)502-71-12;*
e-mail: *harbiyinstitut176@mail.ru*

Bosishga ruxsat etildi:
Qog‘oz bichimi 60x84 1/8
Bosma tabog‘i 15,5. Adadi 2 nusxa
Buyurtma raqami №195 “Harbiy instituti bosmaxonasi”da chop etildi
O‘zbekiston, Toshkent viloyati,
Zangiota tumani
Quyoshli qo‘rg‘oni 176 h/sh.

© «O‘R HX va MU AKT va HAI» 2026

V-SHO‘BA

119.	**dotsent ALLAYAROV D.U.** Muammoli o‘qitish usuli faol usul sifatida.....	642
120.	**dotsent SAYDJANOV F.M.** Axborot-psixologik xurujlardan himoyalashda destruktiv axborot ta’sirlarining o‘rni.....	646
121.	**dotsent AZIMOV A.A., AXMEDOV Z.Y.** Harbiy ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o‘qitishda innovatsion yechimlar.....	651
122.	**dotsent SAYDJANOV F.M.** Axborot-psixologik xurujlarning ta’sir prinsiplari va ularga ilmiy yondashuv mexanizmlari	655
123.	**PhD. KULDASHEV A.M., SIROJITDINOV E.S.** Innovative pedagogical technologies in the military education of the republic of turkey.....	665
124.	**TADJIBAEV Z.A., MADRAXIMOV O‘.A.** Harbiy mutaxasissislarni tayyorlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari.....	669
125.	**t.f.n., dotsent ABDIGAPIROV A.A.** Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning harbiy ta’limdagi o‘rni.....	674
126.	**UMARALIYEV B.N.** Harbiy ta’limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.....	677
127.	**ABDUSAMADOV J.A.** Pedagogik muloqotning ta’lim samaradorligiga ta’siri	686
128.	**PhD, docent ZARIPOVA D.A., PhD student, TOJIYEV A.H.** An artificial intelligence–based approach to the analysis of students’ digital behavior.....	690
129.	**KUZIBEKOV N.SH.** Taktik qo‘mondonlik yo‘nalishida harbiy ofitser kadrlarni tayyorlash va amaliyotga yo‘naltirishning eksperimental tadqiqi natijalari va ularning samaradorlik darajasi.....	696
130.	**assistant ISOMIDDINOV M.U., assistant SIROJOV N.G‘.** Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion o‘qitish usullarini joriy etish masalalari.....	706
131.	**mayor FAYZIYEV N.A.** Lidar texnologiyasi va uning zamonaviy harbiy harakatlarda ahamiyati.....	709
132.	**dotsent XUDAYAROV A.SH.** Harbiy pedagogikaning fanlar bilan aloqasi va ilmiy tadqiqot metodlari	713
133.	**t.f.f.d.(PhD), dotsent RAXIMOV A.A.** Qurolli kuchlar harbiy xizmatchilari xizmat samaradorligini tahlil qilishning konseptual modelini shakllantirish ...	721
134.	**dotsent XUDAYAROV A.Sh.** Harbiy xizmatchilar ta’limi jarayonining asosiy qismlari va ta’limi prinsiplari.....	726
135.	**RAYIMOV Sh.K.** Ta’lim oluvchilarning kreativligini shakllantirishda muammoli ta’limning ahamiyati.....	735

o'qituvchi va kursantlar o'rtasida ijodiy hamkorlik imkoniyatlarini ochib beradi, materialni va faoliyat usullarini chuqurroq va mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. Банникова Л. С. Методики преподавания и технические средства обучения: Курс лекций. В трех частях. Часть I. / Л.С. Банникова. – Республика Беларусь - Гомель: УО «ГГУ им. Ф. Скорины», 2016. - 82с.

[2]. Витлин Ж. Л. Эволюция методов обучения в XX веке. - 2001. С.23-29.

[3]. Демьяненко М.Я. Основы общей методики обучения: теоретический курс / М.Я. Демьяненко, К.А. Лазаренко, С.В. Мельник. - Киев: Вища школа, 2015. - 280с.

[4]. Конышева А.В. Современные методы обучения / А.В. Конышева. - Минск: ТетраСистемс, 2017. - 352с.

[5]. Леонтьев А.А. Общая методика обучения: хрестоматия / А.А. Леонтьев. - М.: Русский язык, 1991. - 338с.

[6]. Полат Е.С. Метод проектов на занятиях. - 2000. - С.3-10.

[7]. Насырова Д.М., Очилова М.Р., Кадырова З.Б. Проблемный метод, как активный метод /Д.М. Насырова, М.Р. Очилова, З.Б. Кадырова / Наука и Мысль. - 2024. - № 6.

AXBOROT-PSIXOLOGIK XURUJLARDAN HIMOYALASHDA DESTRUKTIV AXBOROT TA'SIRLARINING O'RNI

dotsent Saydjanov Farxod Madraximovich

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va Mudofaa universitetining Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunga kelib dolzarb muammolardan biri hisoblangan axborot-psixologik tahdidlar ba'zi bir turlari, usul va uslublari, manbaalari yuzasidan ma'lumotlar kichik bir misollar bilan ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek uning jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, harbiy va boshqa sohalarni boshqarish va ta'sir etish imkoniyati va ko'lami yuzasidan tahlillar ko'rsatib o'tilgan.

Kalitli so'zlar: *verbal, noverbal, psixogen, shok, psixoanalitik, neyrolingvistik dasturlash, psixotron (psixofizik), psixotrop ta'sirlar, gipnoz, parapsixologik, ekstrasensor ta'sir, taqlid, kompyuter virusi, psixofiziologik va emotsional holat, diskreditatsiya, propaganda, dezinformatsiya, manipulyatsiya, lingvistik ta'sir vositalari.*

Аннотация. В данной статье на небольшом примере показана информация о некоторых видах, методах и методах, источниках информационно-психологических

угроз, которые на сегодняшний день считаются одной из актуальных проблем.ннотация. В данной статье на небольшом примере показана информация о некоторых видах, методах и методах, источниках информационно-психологических угроз, которые на сегодняшний день считаются одной из актуальных проблем. Также показан его анализ возможностей и масштабов управления и влияния общества на экономическую, политическую, военную и другие сферы.

Ключевые слова: *вербальное, невербальное, психогенное, шоковое, психоаналитическое, нейролингвистическое программирование, психотронное (психофизическое), психотропное воздействие, гипноз, парапсихологическое, экстрасенсорное воздействие, имитация, компьютерный вирус, психофизиологическое и эмоциональное состояние, дискредитация, пропаганда, дезинформация, манипуляция, средства языкового воздействия.*

Bugungi mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi dunyoning turli mintaqalarida sodir bo'layotgan qurolli nizolarda harbiy xizmatchilarning jangovar qobiliyati va axloqiy-ruhiy holatiga sal'biy ta'sir ko'rsatuvchi axborot-ruhiy ta'sirlarning shakl, usul va vositalari ko'rinishi ortib bormoqda. Mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham xavfli kuchga aylanmoqda, chunki harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish va oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uni ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab olish nihoyatda qiyin. Mana shunday vaziyatda harbiy xizmatchi o'z mustaqil fikriga, milliy qadriyatlariga, mustahkam axloqiy-ruhiy irodaga ega bo'lmasa, ma'naviy, ruhiy va axborot tahdidlarga bardosh bera olmaydi. Shunday ekan, destruktiv axborot-ruhiy xurujlar milliy xavfsizligimizga sezilarli xavf tug'dirib, milliy armiyamizning negiziga putur yetkazish, avvalo, uning ma'naviy-axloqiy asoslariga ta'sir o'tkazishga urinishlarining ahamiyati ortib bormoqda.

Harbiy xizmatchilarning ayrim OAVlar va ijtimoiy tarmoqlarda maqsadli berib borilayotgan destruktiv axborotlardan foydalanishi quyidagi **salbiy holatlarga** olib kelishi mumkin:

harbiy xizmatchilarda o'z yurtiga bo'lgan hamda Qurolli Kuchlarga daxldor ekanligidan g'ururlanish tuyg'ularining pasayishi, shuningdek, Vatan himoyasi yo'lidagi o'z Konstitutsion burchini bajarishga zarur bo'lgan e'tiqodini yemirilishiga;

harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy holatini pasayishi, iroda va ongining zaiflashishi, shaxsiy tarkib orasida o'z mamlakati, Qurolli Kuchlari hamda kelajagiga nisbatan xavotirlanish muhiti kelib chiqishiga;

harbiy jamoalarni siyosiy, diniy, milliy-etnik, xizmat va boshqa omillar bo'yicha parchalanishi, ofitserlar, serjantlar va oddiy askarlar tarkibining bir-biriga qarama-qarshi bo'lib qolishiga;

jangovar qobiliyatni susayishi, dezertirlik, suitsidal hodisalarni sodir etish, kasallikni bahona qilish, komandirlarning buyruqlarini bajarishdan bo'yin tovlash va

xoinlikka moyilligini kuchayishiga;

harbiy xizmat nufuzini va milliy armiya obro'sini pasayishiga;

harbiy xizmatchilar tomonidan milliy xavfsizlikka tahdidlarni hamda destruktiv (buzg'unchi) kuchlarning asl maqsad va rejalarini noto'g'ri idrok etishi, loqaydlik va beparvolik muhitini shakllanishiga [1].

Axborot-ruhiy xurujlar eng avvalo, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali boy madaniyatimiz va ma'naviy qadriyatlarimizga mutlaqo zid bo'lgan mafkura va buzg'unchi g'oyalarni shaxsiy tarkibning ongi va tafakkuriga singdirishga qaratilgan tajovuzkorlikning mafkuraviy shaklda namoyon bo'lishidir. Insoniyat tarixiga nazar solsak, u axborotlashgan jamiyatga qadar bo'lgan uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan va shu rivojlanish bosqichlaridan o'tgan bo'lsada, insoniyatning axborotga ehtiyoji kamayish o'rniga, ko'lami kengayib, sohalar bo'yicha hajmi, uni qiymati va madaniy ahamiyati ortib boraveradi.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M. Mirziyoyevning *"Navqiron avlodimizni bugungi axborot makonida mavjud tahdidlardan himoya qilish, ularda yot va zararli g'oyalarga qarshi barqaror immunitetni shakllantirish maqsadida davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda yoshlar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi amaliy ishlarimiz samaradorligini oshirishimiz zarur"* deya aytgan so'zlarining o'zigina ushbu mavzuning bugungi kundagi dolzarbligi va ahamiyati naqadar muhim ekanligini isboti bo'la oladi [1].

Axborot faoliyati to'g'risidagi mavjud ma'lumotlarni sintez qilish asosida axborot ta'sirining istalgan ob'ekti uchun xavfning yuzaga kelishi mexanizmlarini ochib berish zarur. Faqatgina shu yo'l bilan zamonaviy jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash usullarini aniqlab olish, turli xildagi destruktiv axborot ta'sirlaridan himoya qilishning o'ziga xos jihatlarini ochib berish mumkin bo'ladi. Axborotning xossalari shartli bo'lsada, uning foydaliligi, qabul qiluvchi sub'ektga ta'sir qilish darajasi bilan belgilanadi. Agarda uzatilayotgan destruktiv axborot ta'sirga ega bo'lsa va uni qabul qilayotgan iste'molchining ongini egallab uning ijtimoiy harakatlarida jamiyat va davlat manfaatlariga zid bo'lsa bunday axborotlar bizga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mutaxassislar destruktiv faoliyat mohiyatan turli ob'ekt yoki tizimlarni vayron qilishga nisbatan intilishda namoyon bo'lishini va uning kelib chiqish **sabablarini quyidagicha tavsiflashgan**:

a) harbiy xizmatchilarda ijtimoiy mavqening noaniqligi, pozitsiyalar marginalligi (xudbinlashuvi), psixofiziologik o'zgarishlar ularni yot, buzg'unchi ta'sirlarga nisbatan ancha zaif qilib qo'yadi;

b) xohish-istaklar beqarorligi, maqsadlar noaniqligi, o'zgacha fikrlaydiganlarga nisbatan toqatsizlik, shoshma-shosharlik ba'zi harbiy xizmatchilarni hayotiy tajribaga ega komandir boshliqlar va na'munali harbiy xizmatchilardan uzoqlashtirib, o'zi singari toifalar davrasiga undaydi, ijtimoiy mansublik, qiziqishlar umumiyligi nuqtai nazaridan ular ehtiyojini qondiruvchi turli guruhlarga moyil bo'lib qoladi;

v) harbiy jamoalarda madaniy me'yor va «ustanovka»lar shakllanadi, o'ziga xos qadriyatlar qo'llab-quvvatlanadi, «biz» va «ular» degan psixologik qarama-qarshilik yuzaga kelishiga asos bo'ladigan omillar tarkib topadi [1].

Ayrim harbiy xizmatchilardagi qiziqqonlik, xavf-xatar romantikasi, o'zining kimligini ko'rsatib qo'yishga ishtiyoq, mafkuraviy immunitet, axborot iste'moli madaniyatining shakllanmagani, ba'zan nafaqat harbiy xizmat, balki davlat, jamiyat, atrofdagilar, o'zi, oilasi uchun ham xavfli xatti-harakatlarni sodir etishga olib keladi.

U.Qodirovning yozishicha bugungi axborotlashgan asrda biz OAV orqali har kuni, har soat, har lahzada davlatlar siyosatiga qarshi, odamlar manfaatiga zid, ularning ongini axboriy mahsulotlar bilan mahv etishga qaratilgan minglab xabarlardan xabardor bo'lib turibmiz. Ammo O'zbekistonda olib borilayotgan oqilona tinchlikparvar siyosat, yaqin qo'shnilar, shuningdek, dunyodagi davlatlar bilan olib borilayotgan do'stona aloqalar tufayli tinch, osoyishta, barqarorlikka erishgan mamlakatda hayot kechiryapmiz. Shunday bo'lsada, davlat siyosatiga to'g'ri kelmaydigan, umummilliy g'oyalarga zid, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni inkor etuvchi har qanday g'oyaga qarshi kurashish har birimizning fuqarolik burchimiz bo'lib qolishi kerak [2].

Destruktiv axborot oqimining ko'payayotgani, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning o'zgarayotgani fuqarolarning axboriy-psixologik xavfsizligini ta'minlash borasida individual, guruhiy va jamiyat darajasida tegishli chora-tadbirlar belgilanishi va amalga oshirilishini taqozo etmoqda.

Ayrim media kanallar va ijtimoiy tarmoqlar (Fecbook, Instagram, You-tub, Tik tok va boshqalar) orqali namoyish etilayotgan G'arb seriallari va turli ma'naviyatsiz roliklar go'yoki oddiy hayotiy vaziyatlar asosiga qurilgan syujet orqali tomoshabinlarga zo'ravonlik, behayolik g'oyalarini xuddi bir oddiy holat sifatida, me'yor va «G'arbning ommaviy madaniyati» sifatida singdirilib kelinmoqda. Aslida G'arb davlatlari aholisining aksariyati ham bunday axloqiy me'yorlarni qo'llab-quvvatlamaydi.

Shu o'rinda harbiy xizmatchilarga turli doiralarda ta'sir etuvchi axborot manbaining o'rni katta. Umuman olganda, axborot manbai insonning bilim dunyosini boyitishi bilan birga uning qarashlari, ruhiyati va qadriyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi fikrdan kelib chiqqan holda, uni **salbiy yoki ijobiy** axborot manbalariga

ajratish mumkin. Bizning fikrimizcha, harbiy xizmatchilarning tinchlik va urush davrida axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashda aynan salbiy axborot manbasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. **Salbiy axborot manbai** tushunchasiga mahalliy va xorijlik mutaxassislar tomonidan turli ta'riflar berilgan. Jumladan, bu haqda professor A. Mo'minov shunday deydi: "Bir guruhga o'z maqsadlarini ko'zlab, boshqalarga axborot-psixologik ta'sir ko'rsatishning turli usullaridan faydalanadigan, boshqalarning manfaatlarini hisobga olmaydigan, ularni chalkashtiradigan, boshqalarning manfaatlariga zid harakat qilgan holda ularga ziyon yetkazadigan odamlarning xatti-harakatlarini birlashtirish mumkin" [3].

Shuningdek, *ochiq sathda* OAVda uzatilayotgan axborotlar quyidagicha ifodalanadi. Ularning maqsadi, kechayotgan jarayonlardan insonlarni xabardor etib, ommaviy ongni shakllantirish uchun madaniylashtirish, ogohlantirish, maqsadni shakllantirish va qadriyatlarni mohiyatini anglash uchun ma'rifiy asos yaratadi. *Yopiq sathga* esa, iqtisodiy-siyosiy masalalarga taalluqli bo'lgan axborotlar kirib, ularda davlatning ichki va tashqi faoliyatiga, siyosiy yetakchilari shaxsi va faoliyatiga, siyosiy institutlarga taalluqli bo'lgan axborotlar kiradi.

Bugungi axborot asrida OAVning kuchli ta'siri natijasida oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata olish uchun yetarli hayotiy tajribaga ega bo'lmagan harbiy xizmatchilar salbiy va destruktiv axborotlar ta'siriga tez tushuvchi qatlam hisoblanadi.

E.Xilderikning yozishicha jamiyatda yolg'on va destruktiv axborotlarni tarqatishga quydagilar misol bo'lishi mumkin:

OAVda bila turib yolg'on yangiliklar yoki tuhmat; spirtli ichimliklarni reklama qilish;

"iqtisodiy prognozlar" yordamida salbiy vahima uyg'otish;

narx belgilari yoki mahsulot yorliqlari bo'yicha noto'g'ri ma'lumotlar;

siyosatchilarning saylovoldi va'dalarining bajarilmaganligi;

milliy mojarolarni qo'zg'atish uchun tarixiy faktlarni jonlantirish;

oilani buzadigan turmush tarzini targ'ib qilish;

g'ayrioddiy jinoyatlar to'g'risida batafsil ma'lumot [4].

Bugungi kunning inkor etib bo'lmaydigan xaqiqat shuki, internetomaniya kasalligiga duch kelgan harbiy xizmatchilar o'zining ko'p vaqtini bexudaga sarflash bilan o'tkazmoqdalar, buning oqibatida ularga ham psixologik ham jismoniy va iqtisodiy jihatdan zarar yetmoqda. Ko'p holatlarda virtual dunyo harbiy xizmatchilarning ijtimoiy faolligi o'rnini qoplab, real dunyodan ajratib qo'ymoqda.

Mamlakatimizda turli vazirliklar, qo'mita va idoralar, barcha muassasalar bilan hamkorlikda harbiy xizmatchilar va yoshlarni sport, ma'naviy-ma'rifiy, harbiy vatanparvarlik yo'nalishidagi turli dastur va loyihalarida o'zini namoyon qilishlariga ko'maklashishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir:

ularning kasbiy, kognitiv, ijtimoiy faoliyat sohalarida muhim strategik yo'nalishlarni aniqlab olishlariga yordam beradigan qadriyatlar tizimini shakllantirish;

ijtimoiy takomillashuv va mas'uliyat hissini tarkib toptirishga ko'maklashuvchi ma'naviy yuksalish, tafakkur madaniyati ko'nikmalarini rivojlantirish;

yosh avlod mansub bo'lgan ijtimoiy guruh vakillarida jamiyatga foyda keltirish bilan bog'liq faoliyat turlari bilan shug'ullanishni nazarda tutadigan qadriyatlar tizimini, yo'l-yo'riqlarni tarkib toptirilishi lozim.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, harbiy xizmatchilarni destruktiv axborotlardan psixologik himoyasini ta'minlashda nafaqat tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari, balki barcha toifadagi mansabdor shaxslarning faoliyatini takomillashtirish manfaatlarida axborot makonini nazorat qilish hamda boshqarish bo'yicha imkoniyatlari yuqori bo'ladi. Qolaversa, shaxsiy tarkibni salbiy axborot psixologik ta'sirlardan himoya qilish tadbirlarini yoki umuman olganda, axborot qarshi kurash tizimini uzluksizlik, tezkorlik, professionallik, majmuaviylik, tadbirlarning qo'shin harakati va maqsadiga o'zaro mosligi, ularning jangovar (operativ) ta'minot turlari bilan kelishilganligi kabi tamoyillariga asosan tashkil etilishiga zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi.
2. Qodirov, U. "Buzg'unchi g'oyalar: sabab va oqibatlar tahlili" nomli maqola, Maxalladosh gazetasi. Toshkent, 2020 y. http://mahalladosh.uz.
3. Mo'minov A. "O'zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari.-T.: "Turon zamin ziyo" nashriyoti, 2013.- 140-141 b.
4. Xilderik, E. "Destruktiv axbort to'g'risida" gi qonun nomli maqolasi 1999 y.
5. Shermatov F.T., "Bo'lajak ofitserlarda liderlik psixologiyasi" (Darslik) O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, 7- sonli bayonnoma 2022 y 07.06. (Toshkent. 2022. – B. 231).

HARBIY TA'LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA O'QITISHDA INNOVATSION YECHIMLAR

dotsent Azimov Aziz Asamedinovich
Axmedov Zoxidjon Yokubjanovich
O'zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

[1]. Полат Е.С. Современные педагогические технологии. – М.: Академия, 2020.
[2]. Инновационные технологии в военном образовании. – СПб., 2021.
[3]. OECD. Education and Training in the Digital Age. – Paris, 2022.
[4]. O'zbekiston Respublikasi harbiy ta'limiga oid normativ hujjatlar.

AXBOROT-PSIXOLOGIK XURUJLARNING TA'SIR PRINSIPLARI VA ULARGA ILMIY YONDASHUV MEXANIZMLARI

dotsent Saydjanov Farxod Madraximovich
O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va Mudofaa universitetining Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunga kelib dolzarb muammolardan biri hisoblangan axborot-psixologik tahdidlar ba'zi bir turlari, usul va uslublari, manbaalari yuzasidan ma'lumotlar kichik bir misollar bilan ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek uning jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, harbiy va boshqa sohalarni boshqarish va ta'sir etish imkoniyati va ko'lami yuzasidan tahlillar ko'rsatib o'tilgan.

Kalitli so'zlar: *verbal, noverbal, psixogen, shok, psixoanalitik, neyrolingvistik dasturlash, psixotron (psixofizik), psixotrop ta'sirlar, gipnoz, parapsixologik, ekstrasensor ta'sir, taqlid, kompyuter virusi, psixofiziologik va emotsional holat, diskreditatsiya, propaganda, dezinformatsiya, manipulyatsiya, lingvistik ta'sir vositalari.*

Аннотация. В данной статье на небольшом примере показана информация о некоторых видах, методах и методах, источниках информационно-психологических угроз, которые на сегодняшний день считаются одной из актуальных проблем.ннотация. В данной статье на небольшом примере показана информация о некоторых видах, методах и методах, источниках информационно-психологических угроз, которые на сегодняшний день считаются одной из актуальных проблем. Также показан его анализ возможностей и масштабов управления и влияния общества на экономическую, политическую, военную и другие сферы.

Ключевые слова: *вербальное, невербальное, психогенное, шоковое, психоаналитическое, нейролингвистическое программирование, психотронное (психофизическое), психотропное воздействие, гипноз, парапсихологическое, экстрасенсорное воздействие, имитация, компьютерный вирус, психофизиологическое и эмоциональное состояние, дискредитация, пропаганда, дезинформация, манипуляция, средства языкового воздействия.*

Xozirda axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya vositalarining yuqori sur'atlarda rivojlanishi, jamiyat va davlat hayotida keskin ijobiy o'zgarishlarning yuz berishiga sabab bo'lib, insoniyat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqdi. Insoniyat axborot texnologiyalari yordamida, nafaqat, ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatish bilan chegaralanmay, balki jamiyatda iqtisodiy, siyosiy, harbiy va boshqa

sohalarni boshqarish, ularga ta'sir etish va istiqbolini belgilash imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda.

Insonni yashirin tarzda majbur qilish jarayoni, bu atamani keng ma'noda qo'llaydigan bo'lsak, vaqt va makonda muvofiqlashtirilgan, alohida shaxslar tomonidan ham, turli-tuman ijtimoiy tashkilotlar tomonidan ham turli xil o'ziga xos usullar va vositalardan foydalanish bilan amalga oshiriladigan faoliyat turidir. Shaxsni yashirin tarzda majbur qilish texnologiyasi odamlarni yashirin tarzda psixologik majbur qilish jarayonining o'zini ham, psixologik ta'sir o'tkazishning qo'llaniladigan usullari va vositalari majmuasi va protseduralarini ham o'z ichiga oladi.

Psixologik ta'sir vositalari verbal va noverbal usullarga bo'linadi.

*Verbal ta'sir vositalari*ga og'zaki va til vositalari, PR va reklamalarda qo'llanadigan muloqot usullari, xabarlar, bo'g'inlar, firmalar va tovarlarning rasmiy nomlari kiradi [1].

Verbal usulning ta'sir etish auditoriyasi (jinsi, yoshi, millati, ma'lumot darajasi va ijtimoiy holatlari)ni e'tiborga olgan holda, sub'ekt u yoki bu so'zlarni ifodalanishini tanlash orqali ob'ektga tushunarli va sub'ekt istaganiday qabul qilinishiga erishishi kerak bo'ladi.

Noverbal ta'sir vositalari bu so'z bilan bog'liq bo'lmagan shakl va usullar yordamida axborotni uzatishdir [1].

Noverbal ta'sir vositalariga: gavdaning holati, imo-ishora, yuz shakli (mimika), soch turmagi, kiyim bosh, oyoq kiyim, sub'ekt atirining xidi, shovqin, joyning xususiyati (interer) va ta'sir o'tkazish holati kiradi. Asosiy e'tiborni esa ob'ekt o'zini qulay va erkin xis qilishiga qaratilishi orqali berilayotgan axborotni to'liq tushunishga va qabul qilinishiga zamin yaratiladi.

Bosma va tasviriy ta'sir vositalari: davriy nashrlar, gazeta, jurnal, ilmiy maqolalar, ko'rgazmali reklamalar, suratlar va reklama anketalari [2].

Radio, televidenie va kompyuter texnikasi (internet) yordamida ta'sir etish vositalari. Bu radio eshittirishlar audial shaxslarga, turli tahliliy televizion dasturlar, yangiliklar, reytingbop baxs-munazaralar, turli mazmundagi filmlar va boshqalar [2].

Axborot-psixologik ta'sirlar, atrofdagi vaziyatga qarab ikkita asosiy turdan iborat:

xoxishi (istak)ni uyg'otish - ob'ektning xoxishini axborot-psixologik ta'sirlar orqali uyg'otishda qaysidir ish-xarakatni (hayot faoliyatini o'zgartirishni) uning ongiga singdirib, ma'lum bir amallarni bajartirishga undash orqali erishiladi.

majbur qilish (zo'rlash) - ob'ektning ongida ichki motivining shakllanishi, uning o'z shaxsiy orzu-intilishi va irodasiga qaramay, ma'lum amallarini bajarishi orqali erishiladi [2].

Psixologik ta'sir o'tkazish metodlari

Psixologik ta'sir o'tkazish metodlariga (psixologiya fanlari doktori, professor V.G. Krыskoning qarashlari):

ishontirish;

singdirish;

zaharlash;

taqlid qilish;

gipnoz [3].

Ishontirish metodi – inson ongiga psixologik ta'sir o'tkazish metodi bo'lib, uning oldingi o'z shaxsiy fikrlarini o'zgartirish orqali amalga oshiriladi [4].

Shuningdek, sub'ekt tomonidan axborotning mantiqiylik ketma-ketligi va dalil isbotlarning to'g'ri tizilganligi ta'sirida, ob'ektning kerakli qarorni mustaqil qabul qilganday tushunishi. Demak, ishontirishning asosi argumentlash hisoblanadi. Lekin qanchalik ma'lumot to'g'ri tizilgan bo'lsada, sub'ekt obe'ktning diqqatini jalb eta olishi va obro' e'tiborga ega bo'lishi kerak bo'ladi.

Singdirish metodi - maqsadga yo'naltirilgan kommunikativ ta'sir turi bo'lib, unda inson (jamoa)ning xulqi va ongiga ta'sir etib, dalil mavjud bo'lmasada, uning mavjudligini tan oldirish orqali amalga oshiriladi [5].

Singdirish insonning psixologik tizimini ongsizlik darajasiga yo'naltirilgan bo'lib, odamning aqliy faoliyati to'xtatiladi yoki uning ta'siri susaytiriladi. Keyin esa sub'ekt tomonidan singdirilayotgan axborot to'la-to'kis natija beradi.

Singdirish jarayoni insonning uyg'oq yoki uyqu vaqtida amalga oshiriladi (N.V. Vyazemskiy "Primenenie vrachebnыx vnusheniy" 1903, V.M. Bexterev "Vnushenie i yego rol v obщestvennoy jizni" 1897) [6]. Singdirishning yana bir usuli o'z o'ziga axborotni singdirish, bunda shaxs qandaydir ma'lumotni o'ziga o'zi singdiradi. Bu usulni tadqiq qilishga sezilarli xissa qo'shgan olimlardan I.R.Tarxanov, N.I.Spiredonov va E.Kuelardir [7].

Zaharlash metodi – bu insonning ongsiz va g'ayriixtiyoriy ravishda atrofdagi ob'ektlarning psixologik holati va xulqining xarakatlarini qabul qilishdir.

Har qanday odam atrofdagilarni zaharlash axborot manbai bo'la oladi, agar u kuchli emotsional ruhiy kayfiyatga ega bo'la olsa. Ko'rinib turibdiki, inson ta'sir etish ob'ekti ekanligini angla olmaydi, chunki u sub'ektning chuqur emotsional kayfiyati va kechinmalarini xis qiladi.

Zaharlash usuli asosan katta olomonlarni safarbar etadi. Misol uchun sport ishqibozlari, turli din tarafdorlari, "Pop" qo'shiqchilarning fanatlari, shuningdek sarosimadagi olomonning ommaviy agressiyasini ham safarbar etadi.

Taqlid metodi –xarakatlar orqasidan takrorlash va ularga rioya etish, mustaqil xarakatlarni ko'chirish hisoblanadi.

Inson quyidagi ta'sir uslubi bilan yoshlik davrida to'qnashadi, bu ota-onasiga, yaqinlarining xarakatlarini takrorlashda, birinchi so'zlarini aytganda, balog'at yoshida esa ijtimoiy xulq normalariga taqlid qilishda namayon bo'ladi.

Taqlid qilish quyidagicha bo'lishi mumkin: o'z "kumir"lariga, rahnamolariga, rahbarlariga, mashhur va muvaffaqiyatli shaxslarga.

Reklamalarda asosan taqlid mexanizmlari keng qo'llaniladi, bunda biror bir tovarni reklama qilish vaqtida mashhur shou-biznes, sport yulduzlari va siyosat namayondalari tomonidan amalga oshiriladi.

Gipnoz metodi – bu shaxsning diqqatini jamlash yo'li orqali ta'sir etish texnikasi hisoblanadi, uning maqsadi shaxsning ongi va tafakkurini toraytirish natijasida ta'sir o'tkazib bo'ysundiradi.

Tashqi agent nazorati – bu gipnoteziya ya'ni singdirishga ta'sir etish natijasida gipnoz qilinayotgan shaxsning ma'lum ko'rsatmalarni bajarishi.

Bu ta'sir usuli murakkab va qiyin bajariluvchi usullardan biridir. Gipnoz vaqtida ob'ektning sub'ekt ta'siridan tashqari boshqa barcha ta'sirlarga sezuvchanligi minimallashadi.

Psixologik ta'sirlarning turlarining klassifikatsiyasi (V.G.Kryisko).

Axborot-psixologik ta'sir.
Psixogen ta'sir.
Psixoanalitik ta'sir.
Neyrolingvistik ta'sir.
Psixotron (psixofizik) ta'sir.
Psixotrop ta'sir ko'rsatish.

Axborot-psixologik ta'sir – bu ob'ektga axborot va so'z orqali ta'sir etish bo'lib, faqat bu ma'lumotlar sub'ekt tomonidan translyatsiya etilmaydi, demak u barpo etiladi. Ko'p hollarda bunday ta'sir axborot-propaganda yoki g'oyaviy-mafkuraviy ta'sir deyiladi.

Bu ta'sir usuli asosan axborotlashtirishga o'xshab ketadi, ammo axborot berishdan oldin ob'ektning fikrini, munosabatini va nuqtai-nazarini o'zgartirish yoki kuchaytirish ko'zda tutilmaydi. Aksincha psixologik ta'sir usulining asosiy maqsadi, muayan g'oyaviy (ijtimoiy) qarashlar, fikrlar va ishontirishlar orqali shakllantiriladi.

Ushbu jarayolar odamlarda birdaniga ijobiy yoki salbiy emotsiyalarni, xissiyotlarni va qo'zg'aluvchi ommaviy reaksiyalarni, shuningdek bardoshli tasavvur obrazlarini shakllantiradi.

Psixogen ta'sir – bu ta'sir asosan jismoniy zo'rlash yoki atrofdagi vaziyat va hodisalar ta'siri orqali "shok" holatiga keltirish natijasida kelib chiqadi.

Bunday xolatlarda inson vaziyatni to'g'ri anglay va fikrlay olmaydi. Psixogen ta'sir ыtkazish uchun ranglar tanlashga alohida e'tibor qaratiladi. Olimlarning ilmiy

tadqiqot natijalariga ko'ra, ranglar insonga organizmida turli xil psixologik reaksiyalarni keltirib chaqirish mumkin. Psixogen ta'sir jismoniy va shokli ta'sir usullariga ham bo'linadi.

Jismoniy ta'sir - individning bosh miyasiga bevosita ta'sir natijasida uning normal nerv-psixologik faoliyatida buzilishlar kuzatiladi. Misol uchun, odam bosh miya jarohatini olishi natijasida ratsional fikrlash qobiliyatini va xotirasini yo'qotadi yoki boshqa jismoniy omillar ta'sirida (tovush, yorug'lik, harorat va boshqa) fiziologik reaksiyalar – insonning psixik xolatini o'zgartiradi.

Shok ta'sir – inson ongida atrof muxitdagi vaziyat yoki holat (ommaviy buzg'unchilik, qirg'inbarotli rasmlar va boshqa) ta'siri natijasida ratsional xarakatlanishi, ma'lum makonda orientirlanishni yo'qotishi, effekt holat yoki depressiyani xis etishi va vahimaga tushib qolib o'zini yo'qotishi kuzatiladi. Shaxs qanchalik bunday havfli xolatlarga tayyor bo'lmas ekan, uning psixologik jarohat olishi ehtimolligi shunchalik yuqori bo'ladi. Bunday jarohat olgan shaxslarni psixogen yo'qotish deyishadi.

Psixogen ta'sirning ko'p uchraydigan va natija beradigan usullaridan biri bu ranglarning odamning psixofiziologik va emotsional xolatiga ta'siridir.

Misol uchun, *qo'zg'atuvchi ranglar* – to'q qizil (purpur), qizil, sariq, apelsin ranglar ta'sirida insonning nafas olishi va yurak urishi pulsi tezlashadi va chuqurlashadi va qon bosimi oshadi.

Tinchlantiruvchi ranglar - yashil, ko'k, pushti va moviy ranglar esa teskari ta'sir effektiga ega.

Psixoanalitik ta'sir – bu ta'sir insonning ong ostiga terapevtik vositalar yordamida ta'sir o'tkazib, asosan odamning gipnoz holatida yoki chuqur uyqudaligida qo'llaniladi.

Psixoanalitikaning ta'sir jarayonini o'rganishni prof., doktor I.V.Smirnov ilmiy ishlarida kompyuter texnologiyasini keng qo'llanishi bilan psioanaliz va psixokorreksiya texnologiyasini yaratishini misol qilishimiz mumkin. Bu texnologiya asosida insonni psixikasini diagnostika qilish oqibatida, bu usul odamning hulqi va xarakterini sozlash imkoniyatini beradi [8].

Bular quyidagi ta'sir imkoniyatini yaratadi:

tashqi ta'sir va juda tezlik bilan amalga oshiriladigan yuzaga keladigan vizual va audial ma'lumotlarni, ya'ni so'zlarni va jumlalarni ko'rish (o'qish) va eshitish orqali inson organizmini matematik va statestik reaksiya analizini amalga oshiradi;

inson ong ostida ma'lum ma'lumotni mavjudligini absalyut darajada aniqlaydi va uning har bir odam uchun qanchalik muximligini o'lchaydi, yashirin motivlarini, haqiqiy intilishi va psixikasini og'ishlarini aniqlaydi;

analiz qilingan va aniqlangan ma'lumotlar asosida shaxs yoki guruhning psixikasidagi to'liq nevrotiklik, havotirli va iztirobli ko'rinishlarini aniqlab beradi;

zarur bo'lganda nishonga yo'naltirish amaliyoti o'tkazilib, bunda (xoxishga ko'ra tez yoki belgilangan vaqtda) psixokorreksiyani shaxsning psixik holatidan kelib chiqib xarakatlar so'z-buyruq, surat-obraz va xid-motivatorlardan keng foydalanish orqali amalga oshiriladi;

Inson psixikasini tovushli boshqaruv vaqtida, uning xulqi va xarakatlarini ma'lum singdirilgan kalit so'zlar orqali boshqariladi. Psixoanalitik ta'sir so'z birikmalariga kodlangan maxsus shaklda har qanday tovush uzatish vositalari *(radio, televizor, shovqin-suronli effekt va boshqa)* orqali amalga oshiriladi.

Odam musiqa tinglashi, xonada shovqinni eshitishi yoki televizordagi film personajlarini o'zaro dialoglarini tinglashi orqali qabul qilinmaydigan ong *(mudragan ong)* orqali, shaxsning ongi ostida belgi-buyruqlar o'rnatilishi bilan boshqarilib - belgilangan harakatlarni bajarishga majbur qiladi.

Neyrolingvistik ta'sir **(NLD - neyrolingvistik dasturlash)** — psixologik ta'sirning turi bo'lib, inson ongiga lingvistik dasturlarni kiritilishi natijasida shaxsning motivlarini o'zgartirilishi tushuniladi.

Neyrolingvistik dasturlashni to'liq tarjima qiladigan bo'lsak, nervlar tili va dasturlash bo'ladi. Yoki tushunarli tilda aytadigan bo'lsak, insonni til va so'zlar yordamida dasturlash degan ma'noni anglatadi. Aslida bunday dasturlash texnikalari qadim eramizdan beri mavjud. Ularni odamlar psixikasiga ta'sir qilish uchun hali qadimgi Misr piramidalari qurilmasdan oldin ham kohinlar qo'llashgan.

NLD to'g'risidagi kitoblarni o'qisangiz, bu texnikani egallash ancha qiyin tuyuladi. NLDni o'rganish uchun maxsus treninglar ham o'tkaziladi.

Neyrolingvistik ta'sir texnika rasmiy ravishda tan olingandan beri shu darajada ko'p usullar o'ylab topildiki, NLD haqida juda ko'p kitoblar yozildi. NLDni o'rganayotgan shaxs astoyidil shug'ullansa, ikki-uch yillardan keyin ulardagi texnikalarni amalda qo'llab, biror natijaga erishishi mumkin. Bu texnikalar ichidan eng samarali va amalda qo'llash mumkin bo'lganlarini tanlab olsa kifoya.

NLDda asosiy ta'sir ob'ekti sifatida odamning emotsional-irodasi va bosh miyaning neyrofiziologik faolligini kiritishimiz mumkin.

Asosiy ta'sir vositasi sifatida maxsus tanlangan verbal (so'zli) va noverbal lingvistik dasturning singdirilishi bilan insonni o'zgartirib, uning ishonchi, qarashi va taassurotlarini belgilangan yo'nalish bo'yicha (alohida individ yoki bir guruhni) xarakatlantirish bilan asoslanadi.

Neyrolingvistik ta'sirning sub'ekt sifatida esa maxsus yo'riqchi (instruktor) ob'ektlarning psixikasidagi qarama-qarshi ziddiyatli qarashlarni va ishontirishlarni

qo'zg'atib, ular uchidagi siqilgan salbiy emotsional (siqilgan, tushkun kayfiyatli va xissiyotli) holatlardagilarni aniqlaydi.

Keyingi bosqichda esa, instruktor ularni real (ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, jismoniy va psixologik) holatdagi diskomfortini anglashga yordam beradi. Bu bilan onga o'zgartirishlar kiritib, odamlarni hayotiy vaziyatlarini boshqacha qabul qilishga va ijtimoiy jamiyat boshqacha qarashga turki beradi. Qiziqarlisi shundaki, instruktor ta'sirida odamlarda tushunishga mustaqil ravishda talab kuchayadi va o'zining kundalik faoliyati to'g'risida, shuningdek holati va kechinmalari to'g'risida ma'lumotlarni yig'a boshlaydi. Bunda o'zining real va xozirgi holatidagi tilaklari va imkoniyatlariga erishish uchun qaysi shaxsiy resurslarini safarbar etish kerakligini, qulay xissiyot va kayfiyatga ega bo'lishi uchun aniq nima qilishi kerakligini belgilaydi.

Psixoanalitik va neyrolingvistik ta'sirlar insoniylik yo'lida qo'llanilsagina foydalidir, agar uni odamlar ustidan agressiya yoki ustunlikka erishish maqsadida ishlatilishi psixologik zo'rlash vositasi hisoblanadi.

Psixotron (parapsixologik, ekstrasensor) ta'sir — odamlarga ta'sir o'tkazish usuli bo'lib, ma'lumotni xissiyot bilan bog'liq bo'lmagan idrok (anglamaslik) orqali uzatish tushuniladi [9].

Bunda televizor orqali go'yoki ekstrasensor ta'sirning ommaviy seanslar o'tkazilishini misol qilishimiz mumkin. Bu (*sobiq ittifoq davrida*) Kashpirovskiy, Chumak va boshqa "sehrgarlar" aldovning yorqin oddiy namunalaridan biridir. Bunday ommaviy gipnoz yoki juda katta hajmdagi – ommaviy vasvasa va psixik zaharlanish alohida o'rin tutadi.

Psixotron ta'sirga keladigan bo'lsak, ya'ni bosh miyani yuqori va past chastotali kodlash orqali, generatsiya qilib ishlab chiqiladi. Shuningdek biolokatsion ustanovkalar insonda belgilangan psixologik reaksiyani qo'zg'atish uchun ma'lum bir kimyoviy va biologik vositalarni qo'llash orqali erishiladi.

Psixotronika - inson ongiga texnik vositalar orqali ta'sir natijasida qo'llaniladi. Misol uchun, kompyuter virusiga kiritilgan rangli dog'lar orqali chaqiriladigan effekt, "oxirat xissini uyg'otuvchi raqam v666".

Bu virus kompyuter operatorining psixofiziologik holatiga salbiy ta'sir etishi mumkin (xatto o'limga ham olib kelishi mumkin). Uning ta'sir etish prinsipi kuchli singdirish vositasi bo'lgan *25-kadr fenomeni*ga asoslanadi.

"25-kadr fenomeni" – har bir odam faqat sensor *(anglangan)* sezuvchan idrok diapozoniga emas, balki subsensor *(anglanmagan)* ega, unda ma'lumotlar ongni aylanib o'tib psixikaga singdiriladi. Misol uchun, biror badiiy yoki ilmiy filmni tomosha qilish vaqtida insonning markaziy bosh miyasi 1 soniya maboynida 24 ta kadrli ma'lumotni qabul qila oladi. Agarda 25-kadr qo'shilib, unda salbiy ma'lumot qoldirilsa individ buni sezmaydi, ammo uning emotsional xolatida va xulqida bu

ma'lumot o'z o'rnini topib qattiq ta'sir o'tkazadi. Subsensor rejimida shaxs odatiy holatdan ko'ra ma'lumotlarni olishi ehtimolligi yuqori. Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra psixik xarakatlar "o'rtacha odamda" anglanmagan ong osti darajasining 97%da amalga oshiriladi, faqatgina 3%da anglangan rejimda bo'ladi.

Demak, V666 kompyuter virusi EHM monitoriga 25-kadr sifatida maxsus tanlangan ranglar kombinatsiyasini namoyish etib, odamni gipnotik trans holatiga tushiradi. Ma'lum belgilangan vaqtdan keyin esa rangli suratlar almashadi. Yangi almashgan surat insonning yurak urishini tezlatish, uning ritmik va qisqarish kuchini o'zgartiradi. Natijada qon bosimining (kichik qon aylanish doirasida) to'satdan ko'tarilishi yoki tushishi oqibatida insonning bosh miyasidagi qon tomirlariga katta bosim ta'sir etib og'irlik paydo bo'ladi.

O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, ushbu PK virusi ta'sirida MDH davlatlarida 46 ta EHM tarmoqlarida ishlayotgan operatorlarning o'limiga olib keldi.

Psixotron ta'sirning yana bir misoli sifatida, 1997 yil 1 dekabrda Yaponiyada "ommaviy televizion epidemiyasi" ya'ni "Pokemon" multiplikatsion filmi ta'sirida 700 dan ortiq bolalar epilepsiya simptomlari bilan kasalxonalarga yetkazildi. Mulfilm epizodlarida ko'psonli ko'z qamashtiruvchi rangli yorug'lik ta'sirida, qizil rangni 10 dan 3030gacha sekuntda yonib-o'chishi natijasida ko'z nervini g'ash qilishi, bosh miyaning tomirlarini kengayishi natijasida hushini yo'qotishi, "sudorgi" tutishi va kengayish natijasidagi nafas olishning to'xtalishi kuzatilgan. Shuningdek, 2016 yil "PokemonGO" mobil ilovasi chiqishi natijasida, dunyoda voyaga yetmagan yoshlar orasida o'z joniga qasd qilish darajasi keskin oshdi.

Psixotrop ta'sir — *bu tibbiyot preparatlari, kimyoviy va biologik vositalar yordamida odamlar psixikasiga ta'sir o'tkazish tushuniladi* [9].

Insonning psixikasiga qattiq ta'sir etuvchi vositalar, bular asosan ba'zi bir hidli moddalar. Amerikalik psixiatr A. Xirsh tadqiqotlarida, ba'zi bir hidlar odamlarda aniq xarakatlar yoki ma'lum hulq-atvorni keltirib chiqaradi. U biznes uchun oddiy usuldan foydalangan. Bunda turli xil seksiyalarida maxsus ishlab chiqilgan moddaning hidini tarqatganda, hid tarqatilmagan seksiyaga nisbatan ushbu seksiyalarda savdo-sotiq darajasi ortgani kuzatilgan.

Keyingi tadqiqotda u 3193 nafar ortiqcha vazndan aziyat chekayotgan ko'ngillilarni yig'ib, ularga ovqat yeyishdan oldin maxsus aramatizatorni hidlashi kerak bo'lgan, tadqiqotdagi shaxslar qancha ko'p maxsus aramatizatorni hidlashsa, shuncha ko'p vazndan halos bo'lishgan. Yarim yil ichida ular **12-13kg**.gacha ortiqcha vazndan halos bo'lishgan. Tadqiqot yakunida esa hidlar insonning ishchanlik qobiliyatiga ta'sir o'tkazishi to'g'risida ham hulosaga kelindi.

A. Xirshning fikricha hidlar bu o'ziga yarasha insonning boshqaruv pulti bo'lib, u nafaqat insonning hissiyotlarini balki, uning harakat va amallarini ham boshqarishi

ma'lum bo'ldi. Yana hid orqali odamning qon bosimini ko'tarish yoki tushirish, yurak urishini sekinlashtirish yoki tezlatish, uyg'otish yoki uxlatish mumkin ekanligini ta'kidlab o'tgan. Shuningdek, ba'zi hidlar kasal odamdagi dipressiyani yechishi, ularning kayfiyatini ko'tarishi mumkin. Klinik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki lovanda, ramashka, limon va sandalli daraxtlar hidlari kimyoviy dipressantlarga nisbatan bosh miya faoliyatini tezda susaytiradi va tinchlantiradi. Yasmin, atirgul, yalpiz va gvozdika o'simliklari esa faollashtiradi [9].

Yuqorida ko'rsatilgan psixologik ta'sirlarning hammasi ham teng shaklda ishlatilmaydi. Masalan, axborot operatsiyalarini o'tkazishda asosan axborot-psixologik va psixogen ta'sirlar qo'llaniladi. Shuningdek axborot urushlaridagi ta'sir usullari ommaviy onga ta'sir o'tkazsa, psixoterapiya metodi esa individual onga ta'sir o'tkazadi.

Axborot xurujlarining amalga oshirishda raqiblar asosan quyidagi usullardan foydalanadi [10]:

dezinformatsiya (yolg'on axborot tarqatish) – psixologik ta'sir ko'rsatishning bir ko'rinishi bo'lib, raqib tarafni chalg'itish maqsadida yolg'on axborot tarqatiladi. Bunda haqiqiy axborot bilan yolg'on axborot aralash ko'rinishda tarqatiladi;

manipulyatsiya (omma ongini boshqarish) – omma ongini turli g'oyalar, ko'rsatmalar, motivlar, stereotiplar (taxlit) orqali sub'ekt manfaatlariga moslashtirish. Voqelikni noto'g'ri idrok qilish orqali soxta, yolg'on tushuncha yoki tasavvur hosil qilinadi;

propaganda (targ'ibot) – omma ongida OAV yordamida ma'lum g'oyalarni tarqatish va ommalashtirish;

krizis holatlarni boshqarish – asosan iqtisodiy va siyosiy sohalarga qaratilgan bo'lib, ma'lum guruh yoki davlat qiziqishlarini ko'zlaydi. Avvaldan tanlab olingan shaxslarga yashirin ko'rinishda ta'sir ko'rsatiladi;

ig'vogarlik (podstrekatelstvo) – ma'lum guruhlar va shaxslar tomonidan davlatning konstitutsion tuzumiga yoki qonuniy asoslariga qarshi harakatlarni amalga oshirish;

tuhmat (bo'hton) – biror ob'ektni obro'sizlantirish, sha'nini bulg'ash maqsadida yolg'on ma'lumotlarni tarqatish;

diskreditatsiya (obro'sizlantirish) – omma orasida davlat rahbarlari, jamoat tashkilotlari, ayrim shaxslar, siyosiy yechimlar, tadbirlar ahamiyatini tushirish va ularga salbiy ta'sir ko'rsatish;

omma diqqatini jalb etish – biror voqea, hodisa, ish yuzasidan haqiqiy ma'lumot panada qoldiriladi, shov-shuvga sabab bo'ladigan tadbirlar amalga oshiriladi;

mish-mish gaplarni tarqatish – haqiqatdan mavjud bo'lmagan ma'lumotlarni tarqatish. Asosan davlat va jamiyatdagi bo'shliq joylarga asosiy zarba beriladi hamda siyosiy va ma'naviy yetuk bo'lmagan shaxslar ob'ekt sifatida tanlab olinadi;

fitna (provokatsiya) – maxsus axborot harakati bo'lib, raqib muvaffaqiyatsizlikka (mag'lub bo'lish) olib boruvchi variantni tanlashga majburlanadi.

Axborot ta'siri odatda axborot vakuumi yoki axborot shovqini ta'sirida bo'lishi mumkin. Axborot urushini olib borishning manbalari sifatida turli xil axborot uzatish vositalari bo'lishi mumkin – bular OAV, pochta, mish-mishlar, g'iybatlar, anekdotlar va boshqalar [11].

Demak, yuqorida keltirilgan usullar ma'lum amallar ketma-ketligidan iborat bo'lib, ularni amalga oshirishda axborot hurujining ob'ekti va sub'ekti, kuch va vositalar, resurslar va vaqt omilini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqori darajada axborot xurujidan ko'zlangan asosiy maqsad – raqib davlat axborot maydonini egallab olish, xalqaro maydonda davlat imidjini tushirish, jamiyat hayotini beqarorlashtirish, shaxsni obro'sizlantirishga qaratilgan axborotlarni tarqatish kabilardir. Hozirgi bosqichda maqsadga erishish uchun asosiy vositalari sifatida ommaviy axborot vositalari va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalaniladi.

Xozirgi kunda biror davlatda ham axborot xurujlarini amalga oshirish usullariga qarshi yagona bir kompleks tadbirlar ketma-ketligi ishlab chiqilmagan. Buning sababi sifatida axborot-kommunikatsion tenologiyalarning juda tez sur'atlarda rivojlanib borayotganligi, tezkorligi, turlichaligi, chegara bilmasligi, millat tanlamasligi, yashirinligi (qanday va qay ko'rinishda yakunlanishining noma'lumligi) kabilarni keltirish mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi kunda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan jamiyat sohalarining barcha jabhalarida foydalanishning kengayib borayotganligi, axborotga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi hamda axborot xurujlarini kuchayib borishi va ularning yopiq xarakterga ega ekanligini inobatga olib, u bizdan axborotga bo'lgan taqchillikni oldini olish, sodir bo'lgan voqelikka to'g'ri va xolis baho berish (tahlil va bashorat qilish), turli yot g'oyalarga (qo'poruvchilik ruhidagi) qarshi kurashish va bu sohada yetuk mutaxassislarni tayyorlashni talab qilib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вербальные средства воздействия. Электронный ресурс. (режим доступа): http://mirslovarei.com/content_psy/VERBALNYE-SREDSTVA-VOZDEJSTVIJA-36750.html 22.10.2018й;

2. Манойло А.В. Технологии информационного воздействия в социальных системах http://www.evartist.narod.ru/text24/0028.htm 22.10.2018й.